



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**XORAZM VILOYATINING  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO  
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-mart*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **5 553** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprelga nisbatan **338** taga oshgan (o'sish sur'ati **106,5** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **85** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 468** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **2 101,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **101,1** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **176,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **100,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 925,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,1** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **430,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,3** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 101,6</b>	<b>101,1</b>	<b>176,0</b>	<b>100,9</b>	<b>1 925,5</b>	<b>101,1</b>
Urganch sh.	507,5	96,0	108,1	96,7	399,4	95,9
Xiva sh.	95,5	107,8	6,7	92,7	88,8	109,2
Bog'ot	137,1	92,9	1,0	61,6	136,1	93,2
Gurlan	173,9	103,4	1,4	63,8	172,5	104,0
Qo'shko'pir	101,5	107,3	5,4	101,6	96,1	107,6
Urganch	220,8	104,9	13,7	123,8	207,0	103,8
Hazorasp	271,2	103,0	10,9	74,6	260,3	104,7
Tuproqqal'a	52,5	107,2	0,1	86,0	52,4	107,3
Xonqa	150,6	100,4	7,7	75,8	142,9	102,2
Xiva	71,7	101,3	12,0	8,7 m.	59,8	86,0
Shovot	151,6	107,1	6,1	130,3	145,4	106,3
Yangiariq	102,1	100,3	0,7	71,3	101,4	100,6
Yangibozor	65,6	100,4	2,2	66,1	63,4	102,3

2023- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Xiva shahri (**107,8** %), Qo'shko'pir tumani (**107,3** %), Tuproqqal'a tumani (**107,2** %) va Shovot tumani (**107,1** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-mart, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **116,6 %** ni yoki **2 601,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar-mart oyi)



2023- yilning yanvar-mart oyida o'sish sur'ati 101,1 % ni tashkil qildi.



## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri **24,1 %** bilan **507,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Tuproqqal'a tumanida **2,5 %** bilan **52,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 925,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **1,1 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,6 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,9 %** ga o'sdi va **176,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,4 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,9 %**), Bog'o va Yangiariq (**99,3 %**), Gurlan (**99,2 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**21,3 %**), Xiva (**16,7 %**), Xiva shahri (**7,0 %**) hamda Urganch tumanida (**6,2 %**) kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimidagi ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 071,4</b>	<b>99,3</b>
Urganch sh.	3 376,7	93,9
Xiva sh.	983,0	105,9
Bog'ot	793,1	91,1
Gurlan	1 123,5	101,8
Qo'shko'pir	566,7	105,6
Urganch	1 052,4	102,9
Hazorasp	1 339,2	101,2
Tuproqqal'a	902,8	104,6
Xonqa	771,5	98,7
Xiva	471,2	99,7
Shovot	854,3	105,4
Yangiariq	843,1	98,7
Yangibozor	720,9	98,9


2023- yilning yanvar-mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 071,4** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **99,3** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**3 376,7** ming. so'm), Hazorasp (**1 339,2** ming. so'm) va Gurlan (**1 123,5** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **430,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **101,3** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **201,6** mlrd. so'mni (**102,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **228,8** mlrd so'mni tashkil etdi (**100,3** %).

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi**  
(mlrd. so'm)




**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (foizda)**



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilyonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>430,4</b>	<b>101,3</b>	<b>201,6</b>	<b>102,5</b>	<b>228,8</b>	<b>100,3</b>
Urganch sh.	73,5	77,5	48,1	68,1	25,4	104,7
Xiva sh.	22,6	260,8	20,3	241,0	2,3	926,3
Bog'ot	51,0	72,2	12,9	108,1	38,1	65,0
Gurlan	61,1	108,0	15,9	129,0	45,2	102,1
Qo'shko'pir	42,0	156,2	23,9	140,6	18,1	183,3
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	48,4	91,8	19,7	68,0	28,8	120,8
Tuproqqal'a	5,2	146,0	2,3	111,2	2,9	194,2
Xonqa	27,9	106,4	17,9	97,0	9,9	128,6
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	73,1	125,2	23,0	179,4	50,1	109,9
Yangiariq	15,3	116,6	10,1	143,7	5,3	85,8
Yangibozor	10,3	78,0	7,6	105,4	2,7	45,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **201,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**86,2** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.











Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>86,2</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>13,1</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>24,8</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>11,4</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>8,4</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>6,8</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>5,9</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>9,3</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>3,8</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>3,6</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>3,2</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>25,2</b>





## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi **228,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **204,3** mlrd.so‘mni, qo‘y va echkilar – **22,2** mlrd. so‘mni, parrandalar – **2,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mlrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	90,9
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	78,6
	1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar	34,8
	Qo‘ylar	19,3
	Otlar	0,06
	Echkilar	2,8
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,2
	Tovuqlar	0,8
	Quyionlar	0,03
	Qushlar	0,02

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 288** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – aprel holatiga nisbatan **51** taga kamaygan va o'sish sur'ati **96,2 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 287** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-mart oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,8 %** ni tashkil etib, **59,7** mlrd. so'mga yetdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,6 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **96,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>59,7</b>	<b>100,6</b>	<b>2,0</b>	<b>147,7</b>	<b>57,7</b>	<b>99,5</b>
Urganch sh.	29,7	100,9	2,0	147,7	27,7	98,7
Xiva sh.	1,8	95,3	-	-	1,8	95,3
Bog'ot	2,0	95,2	-	-	2,0	95,2
Gurlan	1,6	102,8	-	-	1,6	102,8
Qo'shko'pir	0,9	101,9	-	-	0,9	101,9
Urganch	9,9	101,7	-	-	9,9	101,7
Hazorasp	2,8	98,4	-	-	2,8	98,4
Tuproqqal'a	1,1	102,3	-	-	1,1	102,3
Xonqa	1,7	102,9	-	-	1,7	102,9
Xiva	1,5	103,0	-	-	1,5	103,0
Shovot	4,6	100,1	-	-	4,6	100,1
Yangiariq	1,1	102,8	-	-	1,1	102,8
Yangibozor	1,1	94,6	-	-	1,1	94,6

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) **1 067,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **25,6 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **520,0** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **100,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **547,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **163,8 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1 067,5</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	1 006,7	94,3
Xiva sh.	2,9	0,3
Bog'ot	5,6	0,5
Gurlan	0,9	0,1
Qo'shko'pir	0,2	0,02
Urganch	10,9	1,0
Hazorasp	23,1	2,2
Tuproqqal'a	0,5	0,1
Xonqa	14,0	1,3
Xiva	0,03	0,003
Shovot	1,8	0,2
Yangiariq	0,6	0,1
Yangibozor	0,2	0,02

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Urganch shahri (**1 006,7** mlrd. so'm), Hazorasp (**23,1** mlrd. so'm) va Xonqa (**14,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **905,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,1 %** ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **760,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **98,1 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **84,0 %** ni tashkil qildi.


# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA MIKROFIRMALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajmga ega yirik korxonalar Urganch tumani (**69,7 mlrd.so'm**), Urganch shahri (**33,7 mlrd.so'm**) va Gurlan (**18,1 mlrd.so'm**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **1 904** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan **123** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **106,9 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **30** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 874** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>905,2</b>	<b>101,1</b>	<b>144,9</b>	<b>120,7</b>	<b>760,3</b>	<b>98,1</b>
Urganch sh.	440,3	96,7	33,7	103,6	406,6	96,2
Xiva sh.	30,9	95,5	0,0	9,5	30,8	96,0
Bog'ot	17,4	79,8	10,5	71,8	6,9	95,9
Gurlan	41,3	189,1	18,1	-	23,2	106,2
Qo'shko'pir	7,6	95,2	0,0	6,6 m.	7,6	95,1
Urganch	193,7	108,4	69,7	129,5	24,0	99,3
Hazorasp	13,2	93,0	0,1	64,2	13,1	93,2
Tuproqqal'a	10,4	94,4	0,0	166,8	10,4	94,4
Xonqa	36,5	87,0	12,2	66,6	24,3	102,8
Xiva	63,6	105,1	0,0	19,6 m.	63,6	105,1
Shovot	15,2	96,1	-	-	15,2	96,2
Yangiariq	18,8	104,3	0,0	111,1	18,7	104,3
Yangibozor	16,4	104,4	0,5	122,9	15,9	104,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Тел. 62-224-65-09**